

O'QISH DARSLIGIDA BERILGAN ASARLARNING MUALLIFLARINI  
O'RGANISH YUZASIDAN TAHLILLAR

АНАЛИЗ АВТОРОВ ПРОИЗВЕДЕНИЙ, ПРИВЕДЕННЫХ В УЧЕБНИКЕ, С  
АСПЕКТА ИЗУЧЕНИЯ

ANALYSIS OF THE AUTHORS OF THE WORKS GIVEN IN THE TEXTBOOK  
FROM THE ASPECT OF STUDY

To'ychiyeva Zulfiyaxon Abdulhamid qizi

ORCID: 0009-0004-7796-2328 O'zbekiston, Qo'qon DPI tayanch doktoranti (PhD)

zulfiyatoychiyeva40@gmail.com tel: 94-552-50-69

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada o'qish savodxonligi darsligida berilgan asarlarni mualliflari hayoti va ijodini o'rganishda innovatsion yondashish. Adib va bolalar yozuvchilarining hayoti va ijodini o'rganish orqali bolalarda kitobga muhabbat uyg'otish.

**Kalit so'zlar:** Innovatsiya, texnologiya, grafika, bilim, ko'nikma, malaka, o'qish savodxonlik, matn, adib, yozuvchi, shoir, o'qituvchi, savodxonlik, dars.

**Аннотация:** Новаторский подход к изучению жизни и творчества авторов произведений, приведенный в данной статье учебник по чтению грамоты. Привить детям любовь к книге через изучение жизни и творчества писателей и детских писателей.

**Ключевые слова:** Инновации, технологии, графика, знания, умения, навыки, чтение грамотность, текст, писатель, писатель, поэт, учитель, грамотность, урок.

**Annotation:** An innovative approach to the study of the life and creativity of the authors of the works given in this article in the textbook reading literacy. Instilling love in children for the book by exploring the life and work of the writer and children's writers.

**Keywords:** Innovation, technology, graphics, knowledge, skills, competence, literacy, text, literary, writer, poet, teacher, literacy, lesson.

O'zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti I.A.Karimovning 2006-yil 31-maydagi "Umumta'lim maktablarini darsliklar bilan ta'minlash tizimini takomillashtirish borasidagi qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ -362-sonli qarorining qabul qilinishi darsliklar mazmun-mohiyatini takomillashtirish bo'yicha olib borilayotgan ishlarni izchil



yo'lga qo'yish, umumta'lim maktablari o'quvchilarini ijtimoiy qo'llab quvvatlash kabi aniq maqsadga yo'naltirilgan jarayon ko'lamini yanada kengaytirish uchun imkoniyat yaratdi.

Yildan yilga zamon talablariga javob beradigan darsliklarni yaratish uchun ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Boshlang'ich ta'lim uchun darsliklar (2-,3-,4-sinflar) har uch yilda qayta nashr qilinib, yangilanib kelinmoqda. Bolalarni tarbiyalashda va adabiyotga qiziqtirishda "O'qish kitobi" darsligining o'rne beqiyosdir. O'qish darsligida berilgan asarlarni o'quvchilar o'qib tahlil qilar ekan, bevosita asar mualliflari haqida ma'lumotga ega bo'lishni istaydi. Avvalo, asar muallifi hayoti va ijodini to'liq o'rganish kerak. Buning uchun esa qo'shimcha adabiyotlarga murojaat qilinadi. Bolalarni adabiyotga qiziqtirish uchun ham adiblar haqida ko'proq ma'lumot berish kerak.

"Bolalar adabiyoti, nazarimizda, hayotning o'zi qadar qadimiy bo'lib, ilk onaning birinchi bolasiga aytgan allasidan boshlanib, xalq og'zaki ijodida bolalarning tili burro bo'lishiga yo'naltirilgan tez aytishlar, fikrini, zehni charxlashga yo'naltirilgan topishmoqlar, o'yin qo'shiqlaridan masallar-u ertaklargacha bo'lgan qanchadan qancha aynan bolalarga mo'ljallangan janrlar tarzida namoyon bo'ladi".<sup>1</sup>

Boshlang'ich sinf o'quvchilariga aqliy tarbiya bilan birga axloqiy tarbiya bir paytda olib borilishi uchun o'qish darsligidagi asarlar to'g'ri tanlanishi zarurdir.

Darslikning maqsadi: "...milliy hamda jahon adabiyotining nodir namunalarini o'qitish orqali o'quvchilarning ma'naviy-axloqiy dunyosini, adabiy-estetik didini shakllantirish hamda ularda mustaqil fikrlash, obrazli tafakkurga oid bilim, ko'nikma, malakalarni hosil qilish va rivojlantirish;

o'quvchilarni badiiy adabiyotga qiziqtirish, asarlarni o'rgatish jarayonida olam va inson tabiati, milliy hamda umuminsoniy qadriyatlar, shuningdek, kitobxonlik madaniyatini shakllantirish orqali o'quvchilarning ma'naviyatini, dunyoqarashini kengaytirib, mustahkamlab borishdan iborat".<sup>2</sup>

O'quvchilarni adabiyotga qiziqtirish uchun yozuvchi va shoirlar hayoti va ijodi bilan yaqindan tanishishtirish zarurdir. Buning uchun o'qituvchi "Bolalar adabiyoti"ga murojaat qiladi. Afsuski, hamma yozuvchi va shoirlar haqida ma'lumot topa olmaydi. Buni 3-sinf o'qish darsligi misolida ko'rish mumkin snoska bering.

|                   |                                                                |
|-------------------|----------------------------------------------------------------|
| Orif To'xtash     | Vatan madhi, Laylak qor                                        |
| Dilshod Rajab     | Yurtim jamoli, Qor alyori, Bosh qomus kitobimiz, Navro'z keldi |
| Hamidulla Murodov | Yangi uy, Oq tumshuq jasorati                                  |
| Ulug'bek Hamdam   | Vatan desam..., Vatan haqida qo'shiq, Ko'prik ustida do'st     |
| Go'zal Begim      | Opa - singil daryolar, May dasturxon                           |

<sup>1</sup> O'zbek bolalar adabiyoti antologiyasi I nizm. – Toshkent: Cho'lpon, 2017. – 3 b.

<sup>2</sup> Umumiy o'rta ta'limning davlat ta'lim standarti va o'quv dasturi. – Toshkent, 2017. – 14 b.



|                        |                                                                                                             |
|------------------------|-------------------------------------------------------------------------------------------------------------|
| Kavsar Turdiyeva       | Obod mahalla bo'ylab, Vaqting ketdi – naqding ketdi, Oyijonlar, onalar, Ahillik ko'chasi, Tinchlik ko'chasi |
| Muhabbat Hamidova      | Vatanni tanish, Jumboq hikoya                                                                               |
| Xolmurod Safarov       | Savollarga javoblar,                                                                                        |
| Xudoyberdi To'xtaboyev | Yaxshilik ketidan yaxshilik keladi, Buyuk bobomizning buyuk hikmatlari                                      |
| Sharifa Salimova       | Kuz saxovati                                                                                                |
| Tolib Yo'ldosh         | Uzumlar oilasi, Mohir qo'llar qo'shig'i, Hunarni sev                                                        |
| Mahmud Murodov         | Olma                                                                                                        |
| Ravshan Isoqov         | Fasllar, Yoz zavqi                                                                                          |
| Anvar Obidjon          | O'qituvchining o'g'itlari, O'n tilla mukofot haqida ertak, Sport maktabi, O'quvchilar oromgohida            |
| O'tkir Xoshimov        | Xazonchinak, Chana                                                                                          |
| Zahro Hasanova         | Hosil bayrami, Notinch mamlakatlarda                                                                        |
| Nurmat Maqsudiy        | Ilmli ming yashar                                                                                           |
| Po'lat Mo'min          | Oltin kuzim, Momiq qor,                                                                                     |
| Normurod Norqobilov    | Qizcha va qarg'alar                                                                                         |
| Zafar Diyor            | Kitob, mening do'stimsan, Bahor yaqin                                                                       |
| Faxriddin Hayit        | Donishmand quyon va kichkintoy jirafa, Tilak                                                                |
| Tursunboy Adashboyev   | Ona tilim                                                                                                   |
| Erkin Malik            | Unutilmas bayram                                                                                            |
| Zulfiya Mo'minova      | Xo'roz nega uchmaydi                                                                                        |
| Zamira Ibrohimova      | Hisobda adashgan bola, Qorboboga elektron maktub                                                            |
| Olqor Damin            | Chalavoyning to'la tushi                                                                                    |
| Yo'ldosh Shamsharov    | Varrak                                                                                                      |
| Sunnatilla Anarboyev   | Bahs                                                                                                        |
| Obid Rasul             | Bordir kulol amakim                                                                                         |
| Mirzakalon Ismoilov    | Bobongiz xafa bo'lsalar maylimi?                                                                            |
| Sobit G'ofurov         | G'oz – hunaring oz                                                                                          |
| Zikrilla Ne'mat        | Kumush fasl, Vatanimga xizmat qilaman                                                                       |
| Quddus Muhammadiy      | Qish ham chiroyli, Bahor keldi                                                                              |
| Aziza Ahmedova         | Qish ertagi                                                                                                 |
| Yayra Sa'dullayeva     | Qish bo'lmasa –chi?                                                                                         |
| Oydinniso              | Qorparcha                                                                                                   |
| Qudrat Hikmat          | Ayamajiz                                                                                                    |
| Dilfuza Kamoljonova    | Yangi yil archasiga                                                                                         |
| Yusuf Fayzullo         | Balli buva, Siz bunga qodirsiz                                                                              |
| Safar Barnoyev         | Bobonur                                                                                                     |
| Shukrullo Abdullayev   | Vatan himoyachisi, ailonchani tug'ilgan kuni                                                                |
| Mirkarim Osim          | Jaloliddin Manguberdi                                                                                       |



|                      |                       |
|----------------------|-----------------------|
| Abdusodiq Irisov     | So'nggi damgacha,     |
| Abdulla Avloniy      | Bolari bilan pashsha  |
| Abduqodir Hayitmetov | Donolarning donosi    |
| Berdaq               | Bolam                 |
| Yamin Qurbon         | Lol bo'lgan tulki     |
| Mirzo Karim          | Sayilda               |
| Zohir A'lam          | Soy suvi haqida ertak |
| Habib Rahmat         | Bog'im                |
| Hamidulla Yoqubov    | Inson insonga o'rtoq  |

Yuqoridagi yozuvchi va shoirlarning 3-sinf o'qish darsligida asarlari berilgan.

DTSda quyidagicha belgilangan: “o'rganilgan asarlarning nomi, muallifi, mazmuni va qahramonlarini ajrata oladi;”<sup>3</sup> o'rganilgan asarning mualliflarini ajrata olish uchun esa ularni qisman bo'lsada tanish zarurdir. “O'zbek bolalar adabiyoti” va “Bolalar adabiyoti antologiyasi”da esa Shukrullo Abdullayev, Dilfuza Kamoljonova, Yusuf Fayzullo, Mirzo Karim, Oydinniso, Zikrilla Ne'mat, Faxriddin Hayit, Nurmat Maqsudiy, Sharifa Salimova, Go'zal Begim, Hamidulla Murodov haqida ma'lumotlar yo'q. Bu esa o'qituvchiga qiyinchilik tug'diradi. Balki, o'qish darsligiga qo'shimcha kitob ishlab chiqish vaqti kelgandir. Bolalarni adabiyotga qiziqtirish uchun bolalar adabiyotini darslik sifatida kiritish zarur emasmi? Yangi tahrirdagi 3-sinf darsligining eski darsliklardan afzalligi zamonaviy hikoya va ertaklarning berilishidir. O'quvchi yoshiga juda mos tushgan.

Darslikka kiritilgan asarlarni mualliflarini o'rganish qulay bo'lishi uchun ba'zi jihatlarni tavsiya sifatida berib o'tish mumkin:

- asarlar berilgandan keyin mualliflari haqida ham ma'lumot ilova qilishni;
- qo'shimcha bolalar adabiyotlarini yaratish, uni yangilab borish;
- hayoti o'rnak bo'lguvchi shoirlarni ijodini berishni;
- “Yozuvchilar uyushmasi” ga a'zo bo'lmagan yosh ijodkorlar haqida ma'lumot berib borishni;

- qo'shimcha metodik adabiyotlar ishlab chiqishni;

Ilm-fan taraqqiy etgan zamonda munosib yosh avlodni tarbiyalash uchun ham bolalar adabiyotga e'tiborni qaratish zarurdir.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbek bolalar adabiyoti antologiyasi I nazm. – Toshkent: Cho'lpon, 2017.
2. O'zbek bolalar adabiyoti antologiyasi I nasr. – Toshkent: Cho'lpon, 2017.
3. Umumiy o'rta ta'limning davlat ta'lim standarti va o'quv dasturi. – Toshkent, 2017.

<sup>3</sup> Umumiy o'rta ta'limning davlat ta'lim standarti va o'quv dasturi. – Toshkent, 2017. – 14 b.





4. Abdullayev S. X., Turg'unov S.T. Ta'lim muassasasi rahbarlari boshqaruv faoliyati samaradorligining nazariy asoslari // Kasb-hunar ta'limi jurnali.-2006.-№1.-3-4 b.
5. O'zbekiston Respublikasining „Ta'lim to'g'risida“gi qonuni. // Barkamol avlod — O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. — T.: „Sharq“, 1997.
6. Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi. // Barkamol avlod — O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. — T.: „Sharq“, 1997.
7. Umarova M, Xamraqulova X, Tojiboyeva R. O'qish kitobi: 3-sinf uchun darslik. – Toshkent: O'qituvchi, 2019.

